“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar

Rustam Sharipov,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jadidshunoslik ilmiy tadqiqot markazi direktori, filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: r.sharipov@gmail.com

Аннотация. Maqolada XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlari, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan tayyorlangan “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” tahlil etiladi. Ushbu loyiha Rossiya Davlat Dumasi Musulmon fraksiyasiga taqdim etilgan bo‘lib, unda Turkiston aholisining huquqiy maqomini yaxshilash, idorai ruhoniya va doxiliyani tashkil etish, mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari ilgari surilgan. Maqolada loyiha bo‘limlari va ularning mazmun-mohiyati tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Калит сўзлар. Turkiston jadidlari, Mahmudxo‘ja Behbudiy, madaniy muxtoriyat, idorai ruhoniya, siyosiy-huquqiy qarashlar, tarixiy loyiha

Аннотация. В статье анализируются политико-правовые взгляды тюркестанских джадидов начала XX века, в частности, проект «Культурная автономия Туркестана», подготовленный Махмудходжа Бехбудий и представленный мусульманской фракции Государственной думы России. В проекте поднимаются вопросы улучшения правового положения местного населения, создания Духовно-внутреннего управления, совершенствования системы местного самоуправления. В статье освещается содержание и структура проекта на основе исторических источников.

Ключевые слова. джадиды Туркестана, Махмудходжа Бехбудий, культурная автономия, духовное управление, политико-правовые взгляды, исторический проект

Annotation. This article analyzes the political and legal views of Turkestan Jadids in the early 20th century, focusing on the “Cultural Autonomy of Turkestan” project prepared by Mahmudkhoja Behbudiy and submitted to the Muslim faction of the Russian State Duma. The project addressed key issues such as improving the legal status of the local population, establishing a Spiritual and Internal Affairs Administration, and reforming local governance. The article presents the structure and content of the project based on historical sources.

Keywords. Turkestan Jadids, Mahmudkhoja Behbudiy, cultural autonomy, spiritual administration, political and legal thought, historical project

Bundan yuz yil muqaddam, to‘g‘rirog‘i XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug‘ullandilar. Buni o‘sha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining hatto ilg‘or qismida ham huquqiy bilimning yo‘qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (tashkilot) ochmoqchi bo‘lgan kishilar hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qolgan edilar. Maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyat ochgan kishilar esa bu maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyatning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojiz edilar. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko‘rgan Munavvar qori Abdurashidxonov 1914-yili “Sadoi Turkiston” gazetasining 14-iyun sonida “Jamiyatlar qanday ochilur” degan maqola bilan chiqishga majbur bo‘ldi.

Munavvar qori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, maktab yo jamiyatning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o‘zgarishi bilan kishilarda ibtidoiy huquqiy bilimning yo‘qligi, ayniqsa, yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibtidoiy huquqiy ma’lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor berdilar.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat Dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko‘tarish uchun esa kamida Toshkent shahar Dumasining a’zosi bo‘lish lozim edi. Chor hokimiyati yillarida markaziy va mahalliy Davlat Dumalariga a’zo bo‘lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o‘zlarining el-yurt oldidagi burchlarini bajargan, deb bo‘lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat Dumasining a’zosi sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

2001-yili Haarlem (Niderlandiya)da nashr etilgan “Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924” degan to‘plamdan ma’lum bo‘lishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”ni tayyorlagan va bu “Loyiha”ni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya qo‘mitasi raisi Usmon Xo‘jaev (Usmon Xo‘ja, 1878-1968) xotirasiga bag‘ishlangan ushbu to‘plam uning farzandi doktor Temur Xo‘jao‘g‘li tomonidan nashrga tayyorlangan (Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001).

Mazkur “Loyiha” Mahmudxo‘ja Behbudiyning Rossiya Davlat Dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun Dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergan va u shunday yo‘l bilan Turkiston

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

masalalari bo'yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gasparalining qo'liga tushgan. I.Gasparalining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemito'g'liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I. Gasparali arxividan Behbudiyning "Loyiha"sini topib, uni Temur Xo'jao'g'liga bergan. Shu tarzda "Loyiha" Temurxo'janing tashabbusi va mehnati bilan dastlib Gollandiyada chop etilgan to'plamda, keyin prof. Begali Qosimov vositasida O'zbekistonda "Jahon adabiyoti" jurnalining 2003-yil 8-sonida e'lon qilingan.

"Loyiha"ga yozilgan kirish so'zidan ma'lum bo'lishicha, Behbudiy 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma'ruzalar yozib bergan va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'targan. Bizningcha, zikr etilayotgan "Loyiha"da Behbudiyning o'sha ma'ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o'zining yangicha talqinini topgan bo'lishi mumkin.

Loyiha to'qqiz bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

Duma xususinda.

Rusiya musulmonlari raisi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi asosining musavaddasi (qoralamasi) Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi xususinda.

Idorai ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.

Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Idorai ruhoniya va doxiliya mas'uliyati.

Turkiston qozilari xususinda.

Joniy va badkorlar (jinoyatchi va bezorilar).

Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

"Loyiha"ning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhlashdan avval shuni aytish joizki, Behbudiy 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishlash jarayonida o'zining katta iste'dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va mufti darajasiga erishgan. Ammo, 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo'lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta'limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o'zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala – yangi tipdagi maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid'at va jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o'rtasida ma'rifat ziyolarini tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Turkistonning ilg'or kishilari safidan o'rin egallagan Behbudiy 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so'zlashi yig'ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasi a'zolari o'rtasida obro'-e'tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat Dumasiga havola etmoqchi bo'ladi.

Behbudiyning 3-Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasiga yo'llagan "Loyiha"sining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag'ishlangani bejiz emas. Prof. Begali Qosimov "Jahon adabiyoti" jurnalining zikr etilgan sonida bosilgan kirish so'zida yozishicha,[1:3] 1- va 2-Davlat Dumalarida qizg'in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo *muxtoriyat* tushunchasi o'sha vaqtda hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma'nosini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari *madaniy muxtoriyat* tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxlsizligini nazarda tutganlar. Bu o‘sha davr uchun, shubhasiz, jasoratli harakat hisoblangan.

Endi bevosita “Loyiha”ning birinchi bo‘limiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat Dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiy bu masalada Turkistondagi musulmon aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu moddaga eslatma sifatida aytish lozimki, o‘sha vaqtda Turkistonda o‘rnashib olgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo‘lgan.

“Loyiha”dagi “Rusiya musulmonlari raisi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limning ma’no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan. Behbudiyning fikricha, Umumrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarini bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya’ni Rossiyaning poytaxtida mahkamayi islomiya tashkil etilishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma’lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston idorai ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag‘ishlangan uchinchi bo‘lim “Loyiha”ning eng katta bo‘limi bo‘lib, o‘n moddadan iborat. Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o‘z qamroviga olgan:

1. Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir idorai ruhoniya va doxiliya (Diniy va ichki ishlar idorasi)ni tashkil etish va bu idorani Toshkent shahrida barpo etib, unga “birinchi darajali ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi”ni saylov yo‘li bilan besh yillik muddatga shayxul-islom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais – shayxul islom, 5 diniy alloma – a’lam, 5 oliy va o‘rta ma’lumotli musulmon – chilon (a’zo), shuningdek, mirzo va sarkotib.

3. A’lam va chilon (a’zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo‘li bilan tayinlash.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a’lam va chilon (a’zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo‘li bilan jalb etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balarini ochish va bu sho‘balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi – oxund, 3 diniy ulamo – viloyat a’lami, 1 oliy ma’lumotli musulmon – viloyat chiloni (a’zosi) va, agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi, uning sho‘balari va dorulqazo(qozixona) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma’lumotli musulmonlardan saylov yo‘li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo‘llar boshqaruvchilari, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

10. Bu idoralarning barchasi sho‘bai ruhoniya va sho‘bai hayotiyaga bo‘linadilar. Behbudiy Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismlariga keng to‘xtabgina qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergan. Umuman, “Loyiha”ning sharhlanayotgan bu birinchi qismida Idorai ruhoniya va doxiliya masalalari muallifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o‘rtasida Islom dini katta mavqega ega bo‘lib, uning ma’naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o‘ylaganidek, yangi diniy tuzilma – Idorai ruhoniya va doxiliya orqali ta’sir ko‘rsatish va aholining turmush tarzini shu tuzilma yordamida o‘zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun ham mazkur “Loyiha”da Idorai ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas’uliyat doirasi quyidagicha belgilangan:

4-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya a’zolarining xatti-harakati.

1. Shayxul-islom va oxund – ruhoniy va shar’iy ishlar, a’lamlar – qonun-qoidalar va zamonning zarur ishlari, a’zolar esa turli-tuman ishlar bilan shug‘ullanadilar. Muhim ishlarga viloyat a’lamlari va a’zolari ham chaqirilib, majlis o‘tkaziladi. Hatto lozim bo‘lganda Rossiyadagi Idorai ruhoniya va muxtoriyat doiralaridan maslahat olinadi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi sho‘balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga rioya qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm va qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo‘ladi.

4. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayxul-islomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlari bu idoralarning ruhoniy va hayotiy sho‘balari to‘g‘risida ma’lumot olish, taftish qilish va hisob so‘rashga haqlidir.

5-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Bu bo‘limda Idoraning faoliyat doirasi o‘n ikki moddada belgilangan va ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Idora o‘z sho‘balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o‘rtasida aloqa o‘rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma’lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug‘ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xullas, ro‘zg‘or va oila ishlari, turli xil ko‘chma va ko‘chmas mulk hamda nomus da’volari bilan shug‘ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-sahovat, vasiyat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek, maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar’iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so‘ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniy va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiradigan shaxslarni imtihon qilib, ular saviyasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnoma beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoiya jug‘rofiyasiga muvofiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko‘ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorai ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan shug‘ullanish va bu

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu “Loyiha”ning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorai ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag‘ishlangan so‘nggi 6-bo‘lim quyidagi masalalarni o‘z ichiga olgan:

1. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balari, ijroiya mahkamasining, a’lam va a’zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinoyatlari Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va dohiliyaning rais, a’lam va a’zolarining jinoyatlari taftish komissiyasi tomonidan o‘rganiladi. Rossiyadagi barcha Idorai ruhoniya va muxtoriyatlarni tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasining vazifasiga kiradi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining tuzilmasi, a’zolarining xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas’uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaviy huquqiy bilimlarni puxta egallaganligi yaqqol ko‘rinib turadi.

7-bo‘lim. Turkiston qozilari xususinda.

Behbudiy qozixonada ishlagani va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o‘n moddada ifodalagan va bu moddalarning asosiylari quyidagilardir:

1. Turkiston qozilari hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyiqliklari Idorai ruhoniya va doxiliya yoki sho‘basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo‘shatish masalasi ham mazkur Idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o‘rniga shar’iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir volostda bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinning vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorai ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo‘lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi appelyatsiya uchun Idorai ruhoniyagacha ko‘tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o‘zbekcha) yozilib, da’vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilari tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyadagi adliya mahkamalari tomonidan e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq va h.k.

“Loyiha”ning “Joniy va badkorlar” (“Jinoyatchi va bezorilar”) degan sakkizinchi hamda “Turkiston yahudiylari va ajnabiylari” degan to‘qqizinchi bo‘limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarni adolatli hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar turkistonliklar 3 marta o‘g‘irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo‘lsalar, ular Idorai ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin va h.k.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Behbudiy Idorai ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog‘liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog‘liq “talab va modda”lardan iborat “Loyiha”ning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma’ruza tarzida taqdim etgan. Bu qism quyidagi to‘rt bo‘limdan tashkil topgan:

Milliy mahkamalar xususinda.

Vaqflar xususinda.

Umumiy maktablar.

Suv va yerlar xususinda.

“Mulkiy mahkamalar xususinda” deb nomlangan birinchi bo‘limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

“Loyiha”dagi vaqf masalasiga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarini butkul Idorai ruhoniya ixtiyoriga o‘tkazishga qaratilgan. Behbudiy, “Loyiha”ning boshqa bo‘limlaridan ham ma’lum bo‘lganidek, o‘lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorai ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu Idora ixtiyoriga o‘tkazish yo‘li bilan Turkistonning “madaniy muxtoriyati”ga erishmoqchi bo‘lgan.

Yuqoridagi moddalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, Behbudiy bir tomondan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganlarini ko‘zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyadagi rus fuqarolari bilan teng huquqli bo‘lishi, ikkinchi tomondan, Turkistondagi rus ma’muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning “madaniy muxtoriyat”iga erishish yo‘llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari “Loyiha”ning suv va yer haqidagi bo‘limida ham o‘z ifodasini topgan.

Behbudiy 1907-yil noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi kishanlarini bo‘shashtirmoqchi bo‘lganki, biz bu hujjatda oradan o‘n yil o‘tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g‘oyalarining dastlabki sadolarini ko‘ramiz. Behbudiyning bu “Loyiha”si bilan Turkistondagi mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo‘lgani shubhasiz. O‘lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorai ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o‘tkazilishi, shuningdek, maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg‘a surilgan takliflar Behbudiyning o‘z davridan kamida o‘n yilga ilg‘orlab ketganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Жаҳон адабиёти. - 2003. 3-сон.